



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

ALISHER NAVOIYNING LIRIKASIDA ZUHD MAQOMI VA ZOHID OBRAZI TAHLILI

Tursunmurodova Dilobar Rahimjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, tayanch
doktoranti

Annotatsiya

Tasavvuf tariqatining bir necha bosqichlari borki, Navoiy ijodida ularning har biri ma'lum ma'noda o'z aksini topgan. Shulardan biri biz tadqiqot ob'yekti sifatida qaralayotgan zuhd maqomi va bu yo'ldagi soliklarning dunyoqarashi, tasavvuf maqomidagi o'rni, xususiyatlarini Navoiy lirikasida ularning tutgan badiiy-estetik funksiyasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, zuhd, zohid, tavakkul, nafs, xilvat, qanoat, toat-ibodat.

АНАЛИЗ КАТЕГОРИИ ЗУХД И ОБРАЗА ЗОХИДА В ЛИРИКЕ АЛИШЕРА НАВОИ

Турсунмуродова Дилобар Рахимжон кизи

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени
Алишера Навои, базовый докторант

Аннотация

В суфийском ордене выделяют несколько этапов, каждый из которых в той или иной степени отражен в творчестве Навои. Одним из них является период аскетизма, который мы рассматриваем как объект исследования, анализируя мировоззрение последователей этого пути, их место в статусе суфизма, их характеристики, а также художественно-эстетскую функцию, которую они выполняли в лирике Навои.

Ключевые слова: суфизм, аскетизм, подвижник, доверие, самость, уединение, довольство, послушание и поклонение.

ANALYSIS OF THE CONCEPT OF ZUHD AND THE IMAGE OF THE ASCETIC IN ALISHER NAVOI'S LYRICS

Tursunmurodova Dilobar Rahimjon qizi

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, Basic
Doctoral Student

Abstract

There are several stages of the Sufi order, each of which is reflected in Navoi's work in a certain sense. One of these is the period of asceticism, which we consider as the object of research, and the worldview of the followers of this path, their place in the status of Sufism, their characteristics, and the artistic and aesthetic function they performed in Navoi's lyrics are analyzed.

Keywords: mysticism, asceticism, ascetic, trust, self, solitude, contentment, obedience and worship.

Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarining ikkinchi qismida tasavvuf maqomlarini o'n taga ajratib, ulardan zuhd maqomini ikkinchi maqom sifatida ta'riflaydi. Navoiyning lirik asarlarida bu timsol qanday talqin etiladi hamda qanday funksiyalarni bajaradi? Quyidagi tahlillar asosida mazkur savolga javob topishga harakat qilamiz. Zuhd maqomi va zohid obrazi bir necha funksiyalarni bajaradi.

Tahlil metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda ilmiy va badiiy matnlar qiyosiy-tarixiy metod asosida tahlil qilindi. Navoiyona dunyoqarash esa biografik metod asosida yoritildi.

Tahlil va natijalar

1. Zohid jannat ne'matlariga talpinuvchi, jannat umidida toat-ibodat qiluvchi solik

Zohidlar haqiqiy ishqdan sururlanishdan ko'ra, jannatga musharraf bo'lishni afzal ko'radilar. Shuning uchun ular Alloh vasliga yetishishdan ko'ra jannatni, u yerda rohat-farog'atga erishishni birlamchi maqsad deb bilganlar. Bu kabi fikrlar quyidagi baytda ifodalangan:

Sen-u firdavs ichida kavsari hur, ey zohid,

Men-u mayxona aro bodaki tutqay shohid.

Ey zohid, senga jannat bog'idagi hur va Kavсар tutadi, menga esa mayxona aro mahbuba boda tutadi. Mazkur baytda shoir zohidga murojaat qilib, uning "firdavs ichidagi Kavсар va hurlarga" yetishish istagini eslatadi hamda bunga qarama-qarshi tarzda o'zining "mayxona"da "boda" tutganini aytadi. Bu yerda "mayxona" haqiqiy ishq va ma'rifat makoni ma'nosini anglatgansa, "boda" ilohiy ishq timsoli sifatida qo'llangan.

Jannat uchun qayg'urish, do'zax azobidan qo'rqish zohidlarga xos xususiyat bo'lib, bunday tasvir ko'p uchraydi. Quyidagi Navoiy ruboiysida ham ana shu jihat aks etgan:

Tilasa ravzani zohid, Navoiy-u – ko'yung,

Ki har kishi ani istarki, bor anga mag'rub. [1; 61-b.]

Mazkur baytda zohid jannat bog'idan umidvor, uni tilovchi sifatida gavdalanadi. Navoiy esa kim nimani niyat qilsa, niyatiga yarasha Alloh taolo hukm qiladi, demoqchi bo'ladi. Zohid mukofot umidida ibodat qiladi, orif esa ishqning o'zi uchun ibodat qiladi. Baytda "har kishi istagan narsasiga mahkumdur" degan ilohiy adolat g'oyasi ilgari surilgan.

Jannat-u hurni zuhd ahlig'a kechmay netayin,

Basdurur chunki manga mug'bachavu mayxona. [2; 572]

Zohidlar jannat va u yerdagi hurlardan kechmaydilar. Menga esa mug'bacha va mayxona bo'lsa yetarli. Mug'bacha tasavvufda sadoqatli va samimiy murid, tolib, oshiq timsoli bo'lsa, mayxona haqiqiy ishqqa ushuftalar maskanini anglatadi. Lirik qahramon haqiqiy oshiq timsolida gavdalanib, zohidlar orzusi bo'lgan jannat va hurlarni rad etadi. Zuhd ahliga kirganlarning asosiy maqsadlaridan biri jannatga musharraf bo'lishdir. Shu jihatdan ular oshiqlardan farq qiladi.

Kir xarobot ichra, ey zohid, tilar bo'lsang bihisht,

Kim mayi Kavсар zuloli kulbai xammoridur. [3; 142]

Agar jannatni tilasang, ey zohid, xarobot ichra kirgin. Chunki kim uchundir Jannat bulog'i mayxonadagi maydir. Zohid bu yerda jannatdan umidvor solik sifatida gavdalanadi. Bunda soliklar maqsadi haqida ham fikr yuritiladi. Zuhd yo'lidagi solik uchun Kavсар bulog'i maqsad bo'lsa, orif uchun mayxonadagi may, ya'ni haqiqiy Alloh ishq maqsaddir. Xarobot so'zining lug'aviy ma'nosi vayrona, sharobxona bo'lsa-da, tasavvuf ahli istilohida bu inson jismining "xarob bo'lishi", ya'ni qanoat va faqr yo'liga kirib, hayvoniy nafslar, keraksiz va yomon xulq-odatlardan qutulish, o'zini xokisorlik va kamtarinlik rutbasiga solishni anglatadi. O'zini mahv qilib, go'zal yuzga nazar tashlash ham shu ma'noga kiradi. Demak, mana shu sifatlarga ega bo'lish uchun shoir zohidni xarobot ichra chorlamoqda.

2. Zohid riyo ahli

Zohid, senu – kavсар, bizu – mug' dayri, nedinkim,

Bir zahri balokash – biz-u, sen – no'shi riyogash. [4; 260]

Zohid, sen Kavсар, ya'ni jannat bulog'idan qonmoqlikni istasang, biz mug' dayrini istaymiz. Mug' dayri ma'rifat sharobini ulashuvchi va ko'ngilga fayz bag'ishlovchi pok insonlar yig'ini hisoblanadi. Bu yerda bizga nisbatan "zahri balokash", zohidga esa "riyogash" ta'rifi berilgan. "Balo – solikning Haqqa yetishish yo'lida irodasini toblab, ruhini chiniqtiruvchi va qurbatni ziyoda qiluvchi jismoniy va ruhiy sinovlar – g'am, qadar, musibat, ofat, falokatdir. Tasavvufda ilohiy imtihon solik qalbida shavq va quvonchning zuhurlanishi yoki ortishi demakdir.

Baloni avliyolar libosi, payg‘ambarlar g‘izosi ham deyishadi” [5; 40-b.]. Mazkur izohlardan ayon bo‘ladiki, har bir solik balokash bo‘lishni orzu qiladigan ruhiy holatdir. Shu bois lirik qahramon o‘zini balokash, zohidni esa Haq rizosi uchun qilinmagan ixlossiz ishlar qiluvchi riyogash deya tanqid qiladi.

**Mangadurur bir pari matlub-u zohid hurg‘a tolib,
Qachon suhbat chiqishqay, chunki menman – telba, ul – ablah.**

Navoiy oshiq qiyofasida gavdalanib, “men bir pariga, ya‘ni Allohga talabgor bo‘lsam, zohid hurga talabgor”, deydi. “Qachon suhbatimiz chiqishadi, chunki men telba, u esa ablah” deya fikrini keskinlashtiradi. Yuqorida tahlil qilingan misralardan shu narsa ayon bo‘ladiki, zohid ibodat bilan shug‘ullansa-da, uning ichida tama mavjud. Jannat va uning ne‘matlaridan umidvorlik ustun turadi. Zohidlar uzlat va taqvoni peshga etgan bo‘lishlariga qaramay, ishq va irfondan bexabar kishilar sifatida tasvirlanadi. Ular falsafiy mushohadakorlik, ajzu irodat bilan ma‘naviy-axloqiy kamolot sari intilish, valiylik, karomat-mo‘jizalar ko‘rsatish kabi xislatlarga ega emas edilar. Zohidlarning niyati ibodat bilan oxirat mag‘firatini qozonish, Qur‘onda va‘da qilingan jannatning huzur-halovatiga yetishish edi. So‘fiylar nazarida esa jannat umidida toat-ibodat qilish ham tamaning bir ko‘rinishidir. Holbuki, so‘fiy uchun na dunyodan, na oxiratdan tama bo‘lmasligi kerak. Yagona istak bu Xudoning diydoridir, xolos.

Bu haqda mashhur rivoyat bor. Mashhur so‘fiy ayol Robiya Adaviya (714–801) Tangriga munojotlarida nola qilib shunday degan ekan: “Ey Parvardigorim, ey Yori aziz, agar jannating tama‘ida toat qiladigan bo‘lsam, jannatingdan benasib et, agar do‘zaxingdan qo‘rqib ibodat qiladigan bo‘lsam, meni do‘zax o‘tida kuydir – ming-ming roziman! Ammo agar Sening jamolingni deb tunlari bedor o‘tkazar ekanman, yolvoraman, meni jamolingdan mahrum etma!”

Alisher Navoiy lirikasida zohid riyokor shaxs tarzida tasvirlanadi. Quyidagi misralarda bu tasvir ochiq-oydin ko‘zga tashlanadi:

**Boda meni ayladi zuhdi riyodan xalos,
Zuhdi riyo yo‘qki, ming ranj-u anodin xalos.
O‘zluguma o‘t solib, berdi manga ishq dame,
Zuhd-u vara‘din farog‘, dard-u balodin xalos.
Jonni xalos ayladi jomi fano zuhddin,
Yo Rab, ani aylama jomi fanodin xalos. [1; 295]**

“G‘aroyib us-sig‘ar” devonidan joy olgan “Xalos” radifli g‘azalida boda, ya‘ni haqiqiy ishq, zuhd-u riyodan xalos etganligi; riyosiz zuhd yo‘q ekanligi; ishq nafasi o‘zligiga o‘t solganligi; zuhd-u vara‘dan farog‘ topib, dard-u balodan xalos bo‘lishi; fano jomi jonni zuhddan xalos qilishi, ammo Alloh taolo ko‘ngilni fanodan xalos qilmasligi bayon etiladi. Hazrat zuhdni riyo bilan yonma-yon tasvirlab, mashaqqatsiz riyo-yu zuhd yo‘q ekanini ta‘kidlaydi. Ya‘ni zohid riyo xislati egasi bo‘lib, mashaqqatli umr kechiradi. Qachonki haqiqiy ishqdan mast bo‘lsagina, zohid riyodan uzoqlashadi, degan qarash ilgari suriladi.

**Zohido, bergucha pand, ayla o‘zung tarki riyo,
Pand bergil o‘zungga, aytqucha yonag‘a pand. [4; 121]**

Bu baytda zohid pand-nasihat beruvchi solik sifatida gavdalanadi. Alisher Navoiy unga: o‘zgaga pand berguncha o‘zing riyoni tark qilgin, yoningdagilarga nasihat qilguncha, o‘zingga nasihat qilgin, deya achchiq tanbeh beradi.

IX asrda tasavvufda malomatiyya mazhabi yuzaga kelgan. Y.E. Bertels malomatiyya mazhabiga mansub kishilar uchun o‘z-o‘zini komillashtirish, yurakni poklash bosh vazifa ekanligini yozadi. Lekin bu ish mutlaqo shaxsiy harakat tarzida, atrofdagilardan yashirin, ko‘z-ko‘z qilinmasdan amalga oshirilishi shart bo‘lgan. Sodda qilib aytganda, malomatiyya insonning o‘z-o‘zini tahlildan o‘tkazish, tahlil etgan sayin qusur-u nuqsonlari uchun o‘zini ayamaslik va ularni malomat tilida fosh etish yo‘lidir.

**Zohido, sen bo‘l riyo avji uza masnadinshin,
Kim Navoiyg‘a erur faqr-u fano tufrog‘i xo‘b. [3; 53]**

Bu baytda zohid riyo avjida, eng yuqori darajada turuvchi sifatida tasvirlanadi. Navoiy esa faqr-u fano maqomining tuprog‘i yaxshi ekanini, o‘zi uchun eng yaxshi maqom, eng go‘zal martaba shu ekanini ta‘kidlaydi. Zohid riyo egasi sifatida ta‘riflanadi. Tasavvufda riyo eng katta ruhiy ofat sifatida qaralib, zohid ko‘pincha riyo egasi sifatida tanqid ostiga olinadi. Bunda ibodatni odamlar uchun bajarish, tashqi ko‘rinish uchun ibodat qilish, zohir bilan mashg‘ul bo‘lib, botinni unutish kabi sifatlar nazarda tutiladi. Navoiy o‘zini faqr-u fano egasi, ya‘ni orif sifatida ko‘rsatib, shu maqomdan faxr etadi. Mazkur baytda ham zohid va orif o‘zaro zidlantirilgan. Navoiyning faqr yo‘lini tutgan lirik qahramoni zuhd, zohidlik, go‘shanishlik va dunyodan qochishni tanqid qiladi. Chunki namoyishkorona zuhddan riyo va makr-hiyla paydo bo‘ladi. Zuhd-u riyodagi uzoqlik bilan faqr-u fanodagi yaqinlikni aniq farqlagan lirik qahramon faqr-u fano tuprog‘ini afzal biladi.

3. Haqiqiy zohid riyodan holi

Desangki, faqr tariqini aylayin mazbut,

Kerakki, zuhd-u riyo birla qilmag‘aysen maxlut. [2; 285]

Agar faqr tariqini mahkam ushlamoqchi bo‘lsang, zuhd-u riyo bilan faqr tariqatini aralashtirib yubormagin. Faqr tariqat yo‘liga kirgan solikning to‘rtinchi maqomi bo‘lib, faqirlik moddiy yetishmovchilik yoki tilanchilik emas, balki Alloh taolo huzurida o‘zini ojiz, g‘arib va faqir his qilishdir. Faqr mosivodan xalos bo‘lish, tavakkul tuyg‘usi bilan yashash demakdir. Faqr sharaf xirqasi, payg‘ambarlar va solihlarning libosidir. Faqr tojini kiygan inson ikki jahonda sultondir. Shu bois faqr tasavvufning asosi va manbasi hisoblanadi. Payg‘ambar alayhissalomning “Faqrlik faxrimdir” degan so‘zlari bois orif insonlar faqrlik bilan faxrlanganlar. Bu faxrlanish xalqqa kambag‘alligini yoki tilanchilarga xos hayotini ko‘rsatish emas, balki Alloh taolo huzurida ojiz va faqirlikni his etib yolvorishdir. Shu bois Navoiy faqirlikni mahkam tutish lozimligini, uni riyoga aralashgan zuhd esa ma‘naviy o‘lim ekanini yoritib bergan.

4. Zuhd ahli savob-gunohlarini hisob-kitob qiluvchi

Hazrat Alisher Navoiyning zuhd maqomi va zohid obrazi haqidagi qarashlarini quyidagi ikki qit‘a asosida qiyosan tahlil qilamiz:

Ko‘rsang, ey zohid, muqomirvash qalandarpehaye,

Bo‘lma ko‘p mashg‘ul-u dunyo shug‘lidin qil ijtinob.

Dona o‘ynab vajhin isor etsam andin yaxshikim,

Evrub tasbih-u yormoq sudni etkaysan hisob. [1; 711]

Navoiy “G‘aroyib us-sig‘ar” devoniga kiritilgan ushbu qit‘asida zohid obrazining xususiyatlarini yanada yorqinroq ochib beradi. Misralarda zohidning dunyo yumushlari bilan mashg‘ul bo‘lgani, bundan saqlanish lozimligi, tasbeh ag‘darib o‘z savob-gunohini hisob qilgandan ko‘ra dona sochib o‘ynashi yaxshiroq ekani tanqid qilinadi. Bizningcha, Hazrat Navoiy bu misralarda zohid tasbeh ag‘darganda Allohning nomini zikr etib, unga hamdu sano aytmaydi, balki o‘z savob-u gunohlarini hisob-kitob qiladi, demoqchi bo‘ladi. Bu misralarda zohid dunyo hoy-u havaslariga berilgan, o‘z foydasini o‘ylaydigan, faqat savob-gunohlarini hisob-kitob qilib yuradigan obraz sifatida tasvirlanadi.

Xo‘sh, bundan ko‘rinadiki, Navoiy nazdida zohid obrazi illatlar egasi sifatida tasvirlanmoqda. Biroq xulosa chiqarishga shoshilmaslik kerak. Tasavvuf maqomotlaridan biri bo‘lgan zuhd yo‘li, unga kirgan solik – zohid aynan shu sifatlar bilan ta‘riflanishi mantiqqa to‘g‘ri keladimi?

Zohid (arabcha: yuz o‘giruvchi, tark etuvchi) – tarkidunyo qilgan kishi. Zohidlar musulmonlarni bu dunyo rohat-farog‘atidan voz kechishga, Allohning zikriga xalal beruvchi barcha narsalarni tark etishga undaydilar. Bektosh Valiyning “Maqolot” kitobida: “Ibodot, umid, qo‘rquv va ilma‘l-yaqin zohidlarga xosdir” [5; 10], – deb aytiladi. Demak, zuhd yo‘liga kirgan solik toat-ibodatda sobitqadam, jism va ruhni nafsdan holi qilgan, jannat umidida yashaydigan, Allohning zikriga xalal beruvchi barcha narsalarni tark etgan kishi bo‘ladi.

Necha tasbihing hisobi, zohido, ich bodakim,

Sen-u mendeklarga xud bu korgohda ne hisob?! [1; 62]

Biz yuqorida tahlil qilgan qit'ada ham zohidlar, Navoiy aqidasi ko'ra, toat-ibodatini hisob-kitob qiladi, degan edik. Mazkur baytda ham zohid qilgan amallarini tasbeh bilan hisoblaydi. Shoir bu ishdan ko'ra boda ichmoqlikni, ya'ni haqiqiy Alloh ishqidan mast bo'lishni tavsiya etadi. Navoiy zohidga qarata: "Sen va mendeklarga bu dunyoda hisob qilishning nima keragi bor?" – deya hisob qiluvchi yagona zot Yaratgan ekanini ta'kidlaydi.

Xulosa

Zohid jannat va uning ne'matlarini istovchi, do'zax azobidan qo'rquvchi, jannat umidida toat-ibodat qiluvchi solik sifatida tasvirlanadi. Zohid riyokor, ya'ni ibodatida doimo Alloh diydorini emas, balki oxirat farog'atini ko'zlovchi shaxs sifatida gavdalanadi. Zohid fano yo'liga xalal beruvchi timsol bo'lib, fano yo'lidagi solik bilan zidlantiriladi. Navoiy, bizningcha, bu holatda zohidni fano yo'liga boshlashga harakat qiladi, ya'ni uning zuhdlik maqomidan ko'tarilishini istaydi.

Hazrat Navoiyning zohid obrazini tanqid ostiga olishining asosiy sabablaridan biri sifatida quyidagi omilni ko'rsatish mumkin: ul zotning shaxsiyatiga diqqat qilinsa, u inson oriflik maqomiga yetgan solik edi. Ularning tasavvuf yo'lidagi martabasi yuqori bo'lgan. Shu bois oriflar nazdida zohidlar quyi maqom egasi sifatida ko'rinadi. Tanqidning asosiy sabablaridan biri ham shunda. Shu tariqa Navoiy zohidlarni keyingi, yuksakroq maqom sari chorlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Navoiy A. To'la asarlar to'plami: 10 jildlik. 1-jild. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. — 804 b.
2. Navoiy A. To'la asarlar to'plami: 10 jildlik. 2-jild. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. — 768 b.
3. Navoiy A. To'la asarlar to'plami: 10 jildlik. 3-jild. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. — 764 b.
4. Navoiy A. To'la asarlar to'plami: 10 jildlik. 4-jild. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
5. Xoja Bektosh Valiy. Maqolat. — Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2000.
6. Avaznazarov O. Mumtoz adabiyot namunalari uchun tasavvuf lug'ati. — Toshkent: Tavfiqnashr, 2025. — 455 b.